



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezislari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

лавҳани яқин орада қаердадир кўргандай ҳис қилади ўзини. Мана бу инсон тафаккурининг кечмиш билан бугун орасидаги тафовутни кўз юма олиши. Дарҳақиқат, инсон тафаккури замон ва маконни фарқ этмайди. Мана бу умуинсоний муаммонинг янгича талқинидир. Яъни бу ижтимоий-маънавий муаммо ҳамиша долзарб. Лекин орадан неча минг йиллар ўтди. Қанча ҳайвон зоти мамонт каби йўқликка кетди, бироқ замон охир бўлишидан ҳали-ҳамон дарак йўқ. Демак бу кўркув ортиқчами? Бу хавотир беҳудами? Юқорида айтилганидак, енгилгина киноя, юмор билан бойитилган шеър китобхонни кўп ўйлашга, тафаккур қилишга чорлайди. Зеро, шоирнинг ўзи айтганидек “Шеърятнинг мавзулари, оҳанглари, ифода услублари ҳар даврда ўзига хос бўлади. Лекин бир нарса ҳамиша устувор: шеърят инсон қалбининг ҳолати эканлиги, унинг қувончи, муҳаббати, нафрати, соғинчи ифодаси экани – адабий”. Шунинг учун ҳам шоирнинг фалсафий тафаккурининг меваси бўлган яхши шеър замон ва макон билмай яшайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Воҳидов Э. Шоиру, шеър, шуур. Тошкент: Ёш гвардия, 1987
2. Воҳидов Эркин. Умрим дарёси. Сайланма. 3-жилд. Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 92.
3. Солижонов Й. Рухиятни ёндирган шеърят. <https://adabiyot.islamonline.uz/adabiyotshunoslik/sheriyat/1281-maqola.html>

AHOLI ORASIDA OMMAVIY SPORT TADBIRLARINING IJTIMOY Ahamiyati

Nazarov Sherzod Tursun o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Mazkur maqolada aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ommaviy sport tadbirlarining ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda nazariy tahlil, sotsiologik so‘rovnoma, kuzatuv va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar aholining keng qismi ommaviy sport tadbirlarini sog‘liqni mustahkamlash, bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish, yoshlarni zararli odatlardan chalg‘itish va ijtimoiy birdamlikni oshirishda muhim vosita sifatida baholashini ko‘rsatdi. Ommaviy sportning ijtimoiy ta’siri nafaqat sog‘lom avlodni tarbiyalash, balki jamiyatda totuvlik va barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim omil ekanligi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: Jismoniy madaniyat, ommaviy sport, sog‘lom turmush tarzi, ijtimoiy faollik, sog‘liqni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, sport tadbirlari.

Kirish

Bugungi kunda jismoniy madaniyat va sportni ommalashtirish, aholining keng qatlamlarini sog‘lom turmush tarziga jalb qilish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Ommaviy sport tadbirlari insonlarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, bo‘sh

vaqtni mazmunli tashkil etish, ijtimoiy faollikni oshirish va jamiyatda sogʻlom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ommaviy sport — yoshlar tarbiyasida, ularni zararli odatlardan himoya qilishda ham samarali vosita sifatida qaralmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — ommaviy sport tadbirlarining ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilish va ularning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrnini yoritishdan iborat.

Metodlar

Tadqiqot quyidagi metodlarga tayandi:


- **Nazariy tahlil:** Ommaviy sport tadbirlarining ijtimoiy ahamiyati yuzasidan mavjud adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar oʻrganildi.

- **Sotsiologik soʻrovnoma:** Toshkent shahri va viloyat markazlarida 200 nafar respondent (talabalar, ishchi-xizmatchilar, turli yoshdagi fuqarolar) oʻrtasida soʻrovnoma oʻtkazildi.

- **Kuzatuv:** Mahallalarda oʻtkazilgan ommaviy sport musobaqalarining tashkiliy va ijtimoiy jihatlari kuzatildi.


- **Statistik tahlil:** Respondentlarning javoblari umumlashtirilib, foiz koʻrinishida qayd etildi.

Natijalar



1-diagramma. Soʻrovnoma natijalari (respondentlarning ommaviy sportga munosabati)

Diagrammadan koʻrinib turibdiki, aholining katta qismi ommaviy sport tadbirlarini sogʻlom turmush tarzini shakllantirish va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishda muhim deb hisoblaydi.



2-diagramma. Ommaviy sport tadbirlarining ijtimoiy ta'sir yo'nalishlari

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ommaviy sport nafaqat sog'liqni mustahkamlaydi, balki yoshlarni ijtimoiy faol bo'lishga, totuvlik va birlikka chorlaydi.

Muhokama

Ommaviy sport tadbirlari aholining jismoniy faolligini oshirish bilan birga, jamiyatning ijtimoiy hayotida ham katta rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ommaviy sport:

- sog'lom turmush tarzini targ'ib qiladi;
- yoshlarni zararli illatlardan chalg'itadi;
- turli ijtimoiy qatlamlar va millat vakillarini birlashtiradi;
- fuqarolarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshiradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida "Sog'lom turmush tarzi" dasturi, "Yoshlar sportini rivojlantirish" loyihalari ommaviy sportni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutmoqda.

Xulosa

Ommaviy sport tadbirlarining ijtimoiy ahamiyati keng qamrovli bo'lib, u sog'lom avlodni shakllantirish, ijtimoiy birdamlikni kuchaytirish va yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Shunday ekan, ommaviy sportni yanada rivojlantirish, uni davlat, jamoatchilik va ta'lim muassasalari hamkorligida amalga oshirish kelajakda jamiyat salomatligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sportni rivojlantirish bo'yicha qarorlari va farmonlari.
2. Karimov A., Raxmatov B. *Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2022.
3. World Health Organization (WHO). *Physical Activity Strategy 2016–2025*. – Geneva, 2016.
4. Eime, R. M., et al. "The health benefits of participation in sport for adults: a systematic review." *Journal of Sports Sciences*, 2013.

5. O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hisobotlari, 2023–2024.

6. Nazarov S., Muhammedov B. XOTIN-QIZLAR SPORTINI RIVOJLANISHDA SOG ‘LOM ONA VA OILANING O ‘RNI: <https://zenodo.org/records/13898432> //Journal of Contemporary World Studies. – 2024. – T. 2. – №. 7. – C. 36-39.

7. Nazarov S. FUTBOLCHILAR TEZKOR-KUCHLILIK SIFATLARI DARAJASINI O ‘YIN USULLARI SAMARADORLIGIGA TA’SIRI //Science technology&Digital finance. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 4-9.

8. Nazarov S. QISQA MASOFAGA YUGURUVCHI MAKTAB O ‘QUVCHILARINING TEZKOR-CHIDAMLILIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI //Journal of Contemporary World Studies. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 4-9.

9. Назаров Ш., Тирабеков О. Yuqori malakali futbolchilarni yillik siklda yuklamalar taqsimotini tahlil qilish //Новый Узбекистан: наука, образование и инновации. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 644-647.

TEXTUALITY STANDARDS IN ACADEMIC VERSUS NON-ACADEMIC DISCOURSES

Nazarov Asilbek

Master’s student Jizzakh branch of National university of Uzbekistan

Solnyshkina Marina Ivanovna

Jizzakh branch of National university of Uzbekistan

Annotation: This paper examines the application of textuality standards in academic and non-academic discourses. Using Beaugrande and Dressler’s (1981) model of seven standards—cohesion, coherence, intentionality, acceptability, informativity, situationality, and intertextuality—the study compares how these criteria are realized in two different communicative domains. The analysis reveals that academic discourse prioritizes cohesion, coherence, and intertextuality to establish scientific credibility and precision, while non-academic discourse emphasizes intentionality, informativity, and situationality to ensure accessibility and engagement for broader audiences. The findings highlight the genre-specific manifestations of textuality and their implications for discourse studies, pedagogy, and translation practice.

Key Words: textuality, academic discourse, non-academic discourse, cohesion, coherence, intertextuality, discourse analysis.

The concept of textuality plays a fundamental role in discourse analysis, as it determines what distinguishes a coherent, communicative text from a random sequence of sentences. De Beaugrande and Dressler (1981) established seven criteria - cohesion, coherence, intentionality, acceptability, informativity, situationality, and intertextuality